



AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASINI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY MASALALARI

Obilov Mirkomil Rashidovich

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0009-0002-7904-1587

akash7509@rambler.ru

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 23 iyulida qabul qilingan "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi"gi PQ-4400 sonli Qarorida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan aholi moliyaviy savodxonligini oshirish sohasidagi ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda aholi moliyaviy xizmatlar ommabopligini kengaytirishni va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishni, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni nazarda tutuvchi "Moliyaviy ommaboplikni oshirishning milliy strategiyasi"ni ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2021-2023 yillarga mo'ljallangan Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasi ishlab chiqildi. Mazkur strategiyada mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi daromadlarini o'stirish, kambag'allikni qisqartirishning muhim vositasi sifatida aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalalariga alohida urg'u berilgan. Shundan kelib chiqqan holda mazkur monografik tadqiqotda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalalari ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilingan va bu borada amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sish, moliyaviy savodxonlik, moliyaviy infratuzilma, moliyaviy xizmatlar.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ОЦЕНКИ УРОВНЯ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

Обилов Миркомил Рашидович

Гулистанский государственный университет

Аннотация. Постановлением Президента Республики Узбекистана ПП-4400 от 23 июля 2019 года "О мерах по повышению популярности микрофинансовых услуг" на Центральный банк Республики Узбекистан была возложена задача разработки "национальной стратегии повышения финансовой популярности", которая предусматривает расширение популярности финансовых услуг и повышение уровня финансовой грамотности субъектов предпринимательства, защиту права потребителей при оказании финансовых услуг. Центральный банк Республики Узбекистан разработал национальную стратегию повышения популярности финансовых услуг на 2021-2023 годы. В этой стратегии особый акцент сделан на вопросах развития предпринимательства в стране, роста доходов населения, повышения финансовой грамотности населения как важного инструмента сокращения бедности. Из этого следует, что в данном монографическом исследовании научно и методически проанализированы вопросы повышения финансовой грамотности населения и разработаны практические предложения и рекомендации.

Ключевые слова: устойчивое развитие, экономический рост, финансовая грамотность, финансовая инфраструктура, финансовые услуги.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL ISSUES OF ASSESSING THE LEVEL OF FINANCIAL LITERACY OF THE POPULATION

Obilov Mirkomil Rashidovich
Gulistan State University

Annotation. By Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PQ-4400 dated July 23, 2019 "On measures to increase the popularity of microfinance services", the Central Bank of the Republic of Uzbekistan was entrusted with the task of developing a "national strategy for increasing financial popularity", which provides for expanding the popularity of financial services and increasing the level of financial literacy of business entities, consumer protection in the provision of financial services. The Central Bank of the Republic of Uzbekistan has developed a national strategy to increase the popularity of financial services for 2021-2023. In this strategy, special emphasis is placed on the issues of entrepreneurship development in the country, income growth, and improving financial literacy of the population as an important tool for poverty reduction. It follows from this that in this monographic study, the issues of improving financial literacy of the population have been scientifically and methodically analyzed and practical suggestions and recommendations have been developed.

Keywords: sustainable development, economic growth, financial literacy, financial infrastructure, financial services.

Kirish.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida moliyaviy bilimlarning yetarlicha emasligi jamiyat uchun qator xatarlarni keltirib chiqarishi bilan bir qatorda, iqtisodiyotga sarmoya kiritish va davlatning iqtisodiy salohiyatining barqaror o'sishiga jiddiy to'sqinlik qiladi.

Bundan tashqari, birlamchi moliyaviy bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi shaxsiy moliyani boshqarishda muammolarning vujudga kelishi va aholi qarzdorligining ko'payishi, shuningdek moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini yetarli darajada himoya qilinmasligiga olib keladi.

Uy xo'jaliklarining xulq-atvori iqtisodiy faollikni belgilab beruvchi muhim omillardan biri sanaladi. Mazkur xulq-atvorning o'zi esa, bevosita aholining moliyaviy savodxonlik darajasiga bog'liqdir. Iqtisodiy adabiyotlarda aholi moliyaviy savodxonligiga xos bo'lgan muammolar qatorida quyidagilar sanab o'tiladi: moliyaviy sohada birlamchi bilimlarning yetishmasligi, oilaviy byudjet va individual daromadlarni rejalashtirish va taqsimlash ko'nikmalarining yetarlicha ommalashmaganligi, moliyaviy va siyosiy institutlarga ishonchsizlik, soliq madaniyatining yetishmasligi va shu kabilar.

Adabiyotlar sharhi.

Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalalari iqtisodchi olim va mutaxassislarning doimo e'tiborida bo'lib kelgan. Respublikaning ko'zga ko'ringan iqtisodchi olimlaridan Vaxobov (2022) moliyaviy savodxonlik kategoriyasini fuqaroning moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida aktiv pozitsiyasini egallashi, jamiyatda o'zi va oila a'zolarining moliyaviy farovonligini oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalari majmuasi sifatida namoyon bo'ladigan insoniy fazilati sifatida ta'riflaydi (Vaxobov, Xojibakiyev, 2022).

Shuningdek, tadqiqotchi Teshaboyeva (2022) aholi moliyaviy savodxonligining o'sishi uning o'z moliyaviy mablag'larini rejalashtirish, daromad va xarajatlarini tartibga solish, turli moliyaviy instrumentlardan foydalana olish borasidagi bilim, malaka va ko'nikmalarining kengayib va takomillashib borishini anglatar ekan, bu o'z navbatida mamlakatdagi tadbirkorlik faoliyati va aholi daromadlar darajasini oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatishini ta'kidlaydi (Teshabayeva, 2022).

Aholi moliyaviy savodxonligining mazmuni va ahamiyatini ochib berishda uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va muayyan tizimga solish muhim o'rin tutadi.

Voskanyanning (2018) ta'kidlashicha, aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalasini uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlamasdan turib hal etib bo'lmaydi. Shunga ko'ra u quyidagi omillarni ajratib ko'rsatadi:

- 1) mamlakatdagi iqtisodiy ta'lim darajasi;
- 2) moliyaviy infratuzilmaning mavjudligi va rivojlanganlik darajasi;
- 3) aholining iqtisodiyotga ishonchi darajasi;
- 4) moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari (Voskonyan, 2022).

Fikrimizcha, aholi moliyaviy savodxonligi tushunchasi o'ta darajada umumlashtirilgan mazmun kasb etib, uni moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning yuqorida keltirilgan tasnifi to'liq ifodalay olmaydi. Uning mazmun-mohiyatiga chuqurroq kirib borish o'z navbatida mazkur tushunchaning turli (masalan, alohida shaxs, muayyan hudud aholisi, mamlakat aholisi) darajalarini tabaqalashtirishni taqozo etadi.

Tadqiqotning usullari.

Maqolada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, monografik bayon usuli, ijtimoiy so'rov o'tkazish, mantiqiy va iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, statistik ma'lumotlarni guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi turli ko'rinishdagi ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan tovar va xizmatlarni yetarli darajada ishlab chiqarilishi bilan bog'liq ekan, bugungi kunda ular orasida moliyaviy mahsulotlar ham tobora keng o'rin egallab bormoqda.

Moliyaviy mahsulotlar tobora turli tuman va murakkab bo'lib bormoqda, moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar esa raqamli texnologiyalarning tarqalishi va hayotimizga tatbiq etilishi jarayonida ayrim iste'molchilar uchun qulay va soddalashib borsa, boshqa birlari uchun esa murakablashib va tushunarsiz bo'lib bormoqda. Ayni vaqtda jamiyatda aholining boy va kambag'al qatlamlari o'rtasida yuqori tabaqalanish kuzatilib, bu ham jahon, ham ichki milliy iqtisodiy inqirozlar ta'sirida namoyon bo'lmoqda.

Aholi daromadlarining yuqori darajadagi tabaqalashuvi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qilib, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni oshiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, IT-texnologiyalar, ta'lim va bilim nisbatan ko'proq ta'minlangan oilalar uchun imkon doirasida bo'lganligi sababli, ular daromadining o'sishiga ta'sir ko'rsatib, natijada daromadlarning tabaqalashuvi o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi.

Jahon hamjamiyati mazkur muammoni anglagan holda, aholi keng ommasining moliyaviy savodxonligini oshirishni kambag'allik va ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuvga qarshi kurashning yo'nalishlaridan biri sifatida tanlaydi.

Moliyaviy institutlarning faol rivojlanishi sharoitida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish fuqarolarga nafaqat turli moliyaviy mahsulotlarni samarali qo'llash, foydali moliyaviy qarorlar qabul qilishga, balki davlatni butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimining to'laqonli ishtirokchisi bo'lishiga imkon yaratadi. Pulning amal qilish qonunlarini bilgan holda, nafaqat ularni to'g'ri taqsimlash, balki ko'paytirish ham mumkin. Har tomonlama o'ylangan moliyaviy qarorlarni qabul qilish hamda moliya bozorida samarali harakatlarni amalga oshirish uchun tegishli bilimlar zarur. Ularning yetarli hajmda bo'lishi moliyaviy risklardan himoyalanih va turmush darajasini oshirishga imkon beradi.

Shu bilan birga hozirgi vaqtda aholi moliyaviy savodxonligining past darajasi kuzatilmoqda. Bu esa pul bilan bog'liq qallobliklarga, shaxsiy jamg'armalarning samarasiz taqsimlanishiga olib keladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, moliyaviy savodxonlikni oshirish nafaqat asosiy moliyaviy jihatlar bo'yicha bilim olishga, balki ushbu bilimlarni muayyan moliyaviy vaziyatlarda qo'llash mahoratiga imkon yaratadi. To'g'ri moliyaviy qarorlarni qabul qilish uchun, inson turli manbalardan olishi mumkin bo'lgan axborot u tomonidan to'g'ri tushunilgan bo'lishi lozim. Biroq, ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikning asoslarini o'qitishning standartlari mavjud emas, shuning uchun yoshlarning ijtimoiy va kasbiy jihatdan o'zini o'zi anglash va jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashishi maqsadida ularga qo'shimcha dasturlar doirasida moliyaviy asoslarni o'rgatish muhim vazifaga aylanadi.

"Moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish faoliyatning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oluvchi kompleks yondashuvni taqozo etadi:

- moliya bozoridagi vijdotsiz xatti-harakatlarni rag'batlantirmaslik;
- umumta'lim o'quv muassasalarida moliyaviy savodxonlik bo'yicha majburiy mashg'ulotlarni kiritish;
- aholi moliyaviy savodxonligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- masalalarning keng doirasi bo'yicha axborotlarni turli maqsadli auditoriyalar uchun tushunarli bo'lgan maxsus internet-resurslarni yaratish;
- moliyaviy savodxonlik darajasini o'lchash hamda uni ilgari surishning turli kanallari samaradorligini baholash bo'yicha dastaklar majmuini yaratish;
- aholining tegishli guruhlari uchun moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning maxsus to'plamini shakllantirish;
- moliya bozori mahsulotlari va xizmatlari to'g'risida aholining axborotga egaligi darajasini oshirish;
- moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni standartlashtirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish".

Moliyaviy savodxonlik darajasi kishilarning qancha qismi noratsional xaridni amalga oshirishi, keyinchalik qaytarilishini ta'minlay olmaydigan kreditlar olishi va h.k.larni baholash imkonini beradi. Ko'pchilik fuqarolarning moliyaviy savodsizligi ham ularning shaxsiy farovonligiga, ham yaxlit holdagi iqtisodiy jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Biroq moliyaviy savodsizlikning darajalari to'g'risidagi nazariyalar mavjud emas. Bu mazkur masala jamiyatdagi iqtisodiy istiqbollarni baholash uchun tadqiqotning amaliy tavsifi xosligi hamda masalaga iqtisodiy faol jamiyatning moliyaviy savodxonligi darajasi borasida uning rivojlanishi qonuniyatlarini izohlovchi nazariyalar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan umumqabul qilingan yagona ko'rsatkichlarning yo'qligi bilan bog'liq.

Aholi moliyaviy savodxonligi muammosining dolzarbligi uning darajasini baholashga uslubiy yondashuvlarning turli-tumanligi orqali ham namoyon bo'ladi.

Moliyaviy savodxonlikni baholash dastlab 1990 yillarning boshida AQShda amalga oshirilgan. Ular aholi turli guruhlari o'rtasida turkum so'rovlar shaklida namoyon bo'lib, o'z ichiga iste'mol bilimlari va shaxsiy moliya (iste'mol krediti, bank hisobraqamlari, sug'urta, iste'mol sarflarining asosiy yo'nalishlari va h.k.) to'g'risidagi savollarni olgan (Hastings, Madrian, Skimmyhorn, 2013.).

Moliyaviy savodxonlikning ko'plab xorijiy tadqiqotlarida tahlil uchun boshlang'ich nuqta bo'lib aholining umumiy moliyaviy bilim va kompetensiyalarini baholash uchun mo'ljallangan savollar majmui hisoblanadi va murakkab foiz, inflyatsiya, risklar diversifikatsiyasi, ipoteka krediti, obligatsiyalar narxining shakllanishi kabi mavzularni qamrab oladi. Ko'rsatib o'tilgan mavzulardan uchtasini qamrab olgan (ingl. Big 3 – "Katta uchlik") moliyaviy savodxonlikni baholash uslubi dastlab A.Lusardi i O.Mitchell tomonidan taklif etilib, 2004 yilda AQSh tomonidan o'tkazilgan sog'liqni saqlash va pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha tadqiqot doirasida sinovdan o'tkazilgan" (Lusardi, Mitchell, 2014). Keyinchalik u yoki bu mamlakat uchun xususiyatli bo'lgan moliyaviy bilim va ko'nikmalarni baholovchi savollar qo'shilgan holda asosiy savollar ro'yxati beshtagacha kengaytirilgan (ingl. Big 5 – "Katta beshlik").

Aholi moliyaviy savodxonligini mamlakat ichida baholash bilan bir qatorda doimiy ravishda xalqaro tadqiqotlar olib boriladi. Bulardan biri sifatida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan so'rovlarni misol keltirish mumkin. Ular aholining turli guruhlarini qamrab oladi (katta yoshdagi aholi – G20 mamlakatlari o'rtasida so'rov; 15 yoshdagi o'quvchilar o'rtasida – PISA so'rovnomasi) hamda moliyaviy bilimlar (moliyaviy arifmetika, foiz, inflyatsiya, investitsiya risklarini tushunish)ni, moliyaviy xulq-atvor (uning salbiy va ijobiy shakllari)ni, moliyaviy qadriyatlar (uzoq muddatli rejalashtirish va pullarga munosabat)ni o'lchashni qamrab oladi.

Xorijiy fanda aholi moliyaviy savodxonligi darajasini baholashda ikkita yondashuv farq qiladi. Birinchi yondashuvda savodxonlikka, ya'ni bilish va tushunish darajasi (financial literacy)ga ko'proq e'tibor qaratiladi. Shuningdek, unda to'g'ri moliyaviy qaror qabul qilish va shaxsiy moliyaviy barqarorlikka erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikma, qadriyat va xulq-atvor bilan bog'liq savollar ham o'z o'rnini topadi (Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti uslubi). Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining aholi moliyaviy savodxonligi darajasini baholash uslubini quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin.

Ikkinchi yondashuv kompetentlik darajasini o'lchashga yo'naltirilgan, ya'ni bilimlarni amaliyotda qo'llashning xususiyatlarini baholaydi (financial capability, Jahon banki uslubi).

Moliyaviy savodxonlik darajasini o'lchash uslubiyotining rivojlanishida muhim bosqich bo'lib mazkur sohadagi milliy dasturlarni amalga oshirishni boshlashdan oldin moliyaviy savodxonlikning bazaviy darajasini baholashni maqsad qilib qo'ygan tadqiqotlarni o'tkazish hisoblanadi. Bunday tahlil Malayziya, Singapur, AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Braziliya, Vengriya, Irlandiya, Kanada, Keniya, Yaponiya va boshqa ko'plab mamlakatlarda amalga oshirildi. Rossiyada birinchi keng miqyosli tadqiqot 2012 yilda Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi buyurtmasi bo'yicha o'tkazildi. Ko'plab mamlakatlarda (Germaniya, Avstraliya, Kanada, Estoniya, Indoneziya, Buyuk Britaniya, Janubiy Afrika va boshq.) nafaqat moliyaviy savodxonlik darajasining tadqiqoti o'tkazilib qolmay, balki uni oshirish bo'yicha davlat dasturlari ham amalga oshiriladi.

1-jadval

Aholi moliyaviy savodxonligini indeks baholash uslubi

(Kalachikova, Belexova, Rossoshanskiy, 2019)

| | |
|--|---|
| Maqsadi | Moliyaviy savodxonlikning hududlar, aholining ijtimoiy-demografik va iqtisodiy tavsiflari bo'yicha tabaqalanish darajasini aniqlash |
| Nomi | "Bilimlar" va "ko'nikmalar" komponentlari bo'yicha moliyaviy savodxonlik darajasini o'lchashning indeks uslubi |
| Hisoblash amalinig qisqacha mazmuni | Predmet sohalari ("daromadlar va xarajatlar", "oila budjeti va moliyaviy rejalashtirish", "jamg'arma va omonatlar", "kreditlash", "investitsiyalash va soliqlar", "sug'urta va pensiyalar", "risklar va moliyaviy xavfsizlik", "iste'molchilar huquqini himoya qilish" subindekslari) bo'yicha subindekslarni hisoblash |
| | Bilimlar va ko'nikmalarning, sh.j. ko'rsatib o'tilgan predmet sohalari bo'yicha xususiy indekslarni hisoblash |
| | Moliyaviy savodxonlikning yig'ma indeksini (0 dan to 1 gacha qiymat chegarasida) hisoblash |
| Baholanuvchi elementlari ro'yxati | "Rossiya Federatsiyasining 2017-2023 yillarda moliyaviy savodxonligini oshirish strategiyasi" da belgilangan moliyaviy savodxon fuqaro modeli bo'yicha tuzilib, o'z ichiga 33 ta pozitsiyani oladi |
| Tadqiqotning empirik bazasi | 2018 yilda mualliflar tomonidan Shimoliy-G'arbiy federal okrugning 4 ta mintaqasi hududida o'tkazilgan sotsiologik so'rov ma'lumotlari tashkil etadi |

Moliyaviy ta'limning muhimligini birinchilardan bo'lib D.Bernxeym asoslagan (*Bernheim, 1995*). Turli manbalarda moliyaviy savodxonlik, moliyaviy ta'lim, moliyaviy maorif, moliyaviy kompetentlikni oshirish va boshqa tushunchalardan foydalaniladi. Keyingi vaqtlarda bu borada ko'plab ilmiy ishlar e'lon qilinib, ularning mualliflari tomonidan "moliyaviy savodxonlik" tushunchasi turlicha nuqtai nazardan talqin qilinmoqda. Xorijiy tadqiqotchilar uni ko'proq asosiy atamalarni bilish va oddiy ko'nikmalar nuqtai nazaridan baholaydilar.

Mazkur muammoga bag'ishlangan rossiyalik olimlar tadqiqotlarida aholi moliyaviy savodxonligining uchta o'zaro bog'liq komponentini ko'rib chiqish imkonini beruvchi bir nechta bloklar kiritilgan.

1. Qadriyatlar – savodxonlikning asosi. Ular shaxslarda moliyaviy xizmatlarga nisbatan ehtiyojlarning shakllanishiga javob beradi va o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini tushunishni ta'minlaydi, ya'ni moliyaviy xulq-atvor madaniyatini shakllantiradi. Budjetni rejalashtirish, maqsadlarni amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish, moliyaviy institutlarga nisbatan munosabat va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Biroq, har doim ham uzoq muddatli moliyaviy strategiyalar bilan bog'liq qadriyatlarning mavjudligi moliyaviy savodxonlikdan, ularning yo'qligi esa savodxonlikning yetishmasligidan dalolat bermaydi. Aksincha, uzoq muddatli strategiyalarning mavjud emasligi, moliyaviy bozor institutlari kuchsiz bo'lgan, inqirozlarga yuz tutgan, qonunchilik bazasining esa bozorning rivojlanishidan ortda qolishi sharoitda ularga ishonchning yo'qligi moliyaviy jihatdan savodli munosabatlarning belgisi hisoblanib, shundan kelib chiqqan holda moliyaviy dastaklardan foydalanishdan voz kechiladi (*Kuzina, 2009*).

2. Zarur bilimlar (maxsus moliyaviy tushunchalarning mazmuni, taklif etilayotgan mahsulotlarning xususiyatlari, ularni himoya qilishning huquq va usullari va boshq. to'g'risida).

3. Ko'nikmalar yoki qadriyatlarining amaliy jihatdan namoyon bo'lishi va bilimlarning qo'llanilishi (mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni izlash, bozor va jamiytdagi holatni kuzatish, kredit, sug'urta va boshqa muassasalar bilan shartnomalarni o'qish va tushunish, taqdim etilayotgan xizmatlarni taqqoslashni bilish va huquq poymol etilgan taqdirda shikoyat qilish va h.k.).

Biroq, kontragentlar o'zaro aloqalarining ko'plab jihatlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan hamda moliyaviy munosabatlarning muntazam paydo bo'lib va murakkablashib borishi yuz berayotgan, moliyaviy institutlari tizimi barqaror bo'lmagan mamlakatlarda empirik tadqiqotlarda moliyaviy savodxonlikni o'lchashga nisbatan kompleks kompetentik yondashuvini qo'llash juda qiyin hisoblanadi (*Belexova, Kalachikova, 2016*).

Shuningdek, aholi moliyaviy savodxonligini faqat ikkita o'zaro bog'liq komponent — "bilimlar" va "ko'nikmalar" bo'yicha o'lchashga asoslangan indeks baholash uslubi ham mavjud (1-jadval).

Milliy va xorijiy fan va amaliyotdagi moliyaviy savodxonlik indikatorlariga mavjud yondashuvlarni tizimlashtirish ularning ikki guruhini ajratish imkonini berdi:

1) moliyaviy savodxonlikning yagona (umumiy, o'rtacha, integral, kompleks va h.k.) ko'rsatkichini ishlab chiqishni taqozo etuvchi yondashuvlar;

2) moliyaviy savodxonlikning kompleks ko'rsatkichlarini ishlab chiqilishini taqozo etuvchi yondashuvlar.

1. Moliyaviy savodxonlikning yagona ko'rsatkichini ishlab chiqish.

Iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar instituti tomonidan moliyaviy savodxonlikning integral ko'rsatkichini quyidagi formula ko'rinishida aniqlash taklif etilgan:

$$Fgr = x \cdot 1 + y \cdot 2 + z \cdot 3,$$

bu yerda:

x – past darajali moliyaviy savodxonlikka ega bo'lgan fuqarolarning ulushi;

y – o'rta darajali moliyaviy savodxonlikka ega bo'lgan fuqarolarning ulushi;

z – yuqori darajali moliyaviy savodxonlikka ega bo'lgan fuqarolarning ulushi.

2. Moliyaning turli sohalari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmani ifodalovchi ko'rsatkichlar majmuini ishlab chiqish.

Jahon banki tadqiqotlarida umumiy holda aholining moliyaviy savodxonligi darajasini amaliy jihatdan aniqlashning, xususan esa, mamlakatlararo taqqoslashni amalga oshirishning murakkabligi ta'kidlanadi. Shunga qaramay, Jahon banki ekspertlari aholi moliyaviy savodxonligining quyidagi uchta asosiy ko'rsatkichlaridan foydalanishni taklif etadilar:

- 1) foiz stavkasini hisoblash to'g'risidagi savolga to'g'ri javob bergan respondentlarning so'rovnomada ishtirok etganlarning umumiy sonidagi ulushi;
- 2) inflyatsiya mexanizmi to'g'risidagi savolga to'g'ri javob bergan respondentlarning so'rovnomada ishtirok etganlarning umumiy sonidagi ulushi;
- 3) risk diversifikatsiyasi to'g'risidagi savolga to'g'ri javob bergan respondentlarning so'rovnomada ishtirok etganlarning umumiy sonidagi ulushi (Lisa Xu and Bilal Zia, 2012).

| Bosqich | Muayyan bosqichda bajariluvchi amallar |
|------------|--|
| 1-bosqich | Muayyan mamlakat (hudud) iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nisbatan ahamiyatli omillarni aniqlash |
| 2-bosqich | Mazkur omillarning joriy davr hamda taqqoslama davr (dinamika)dagi miqdoriy qiymatlarini aniqlash |
| 3-bosqich | Har bir omil bo'yicha baholash uslubini ishlab chiqish aniqlash |
| 4-bosqich | Barcha omillar bo'yicha majmuaviy (kompleks) baholash uslubini ishlab chiqish |
| 5-bosqich | Har bir omil bo'yicha baholash natijalari va xulosalarini chiqarish |
| 6- bosqich | Barcha omillar bo'yicha majmuaviy (kompleks) natijalari va xulosalarini chiqarish |

1-rasm. Moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar nuqtayi-nazaridan baholash uslubi⁵⁰

Ushbu taklif asosida Jahon banki ekspertlari dunyo mamlakatlari moliyaviy savodxonligi ko'rsatkichlarining taqqoslama tahlilini turli tadqiqotlarni umumlash-tirish asosida amalga oshirish imkoniga ega bo'ldilar.

Rossiyalik tadqiqotchilar amaliyotida aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholash uchun ikkita usul keng qo'llaniladi:

1) fuqarolarni moliya to'g'risidagi nazariy bilimlari bo'yicha testdan o'tkazish (masalan, turli internet-resurslar – "Home Credit" banki, Sberbank, Moliyaviy madaniyat markazi, vashifinanso.rf saytlarida testdan o'tkazish);

2) aholi moliyaviy savodxonligini monitoringga asoslangan sotsiologik tadqiqotlari (masalan, moliyaviy tadqiqotlar Milliy agentligi, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligining Jahon banki bilan birgalikdagi, FOM Moliya tadqiqot markazi, RFAning mintaqaviy bo'linmalari tomonidan o'tkazilgan so'rovlar) (Sushko, 2014).

⁵⁰ Muallif ishlanmasi.

Aholi moliyaviy savodxonligini o'rganishning asosiy muammosi shundaki, moliyaviy soha va ilmiy xodimlarda turli hududlarda istiqomat qiluvchilarning moliyaviy bilimlari va kompetensiyalari to'g'risida bir xillashtirilgan ma'lumotlardan foydalanish imkoniga ega emas (Sushko, 2014). Bu uslublarning (shu jumladan, sotsiologik so'rovlarning ham) turli tumanligi bilan izohlanadi.

2-jadval

Moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarning mamlakat (hudud) iqtisodiyotining holatiga ko'ra ahamiyatliligi⁵¹

| Moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar | Mamlakat (hudud) iqtisodiyotining holati | | |
|--|--|------------------|----------------|
| | Rivojlangan, barqaror | Rivojlana-yotgan | Qoloq, beqaror |
| Mamlakatning iqtisodiy salohiyati | - | - | - |
| Mamlakat (hudud)ning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi | - | - | - |
| Davlatning iqtisodiy siyosati | 1 | - | - |
| Hududning geografik joylashuvi | - | - | - |
| Moliyaviy infratuzilmaning mavjudligi va rivojlanganlik darajasi | - | 1 | 1 |
| Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari | - | - | 2 |
| Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar | - | 2 | 3 |
| Aholining iqtisodiyotga ishonchi darajasi | 3 | - | - |
| Aholi mentaliteti | - | - | - |
| Mamlakatdagi iqtisodiy ta'lim darajasi | 2 | 3 | - |

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilish mumkin, hozirda dunyo bo'yicha moliyaviy savodxonlik darajasini baholash metodikasi mavjud bo'lib, turli xalqaro tashkilotlar tomonidan mazkur baholashni amalga oshirib kelinmoqda. Mavjud baholashlar turlicha uslubiy yondashuvlarga asoslansada, biroq ularning umumiy tomoni – bevosita test va so'rovlar o'tkazish usullariga tayanadi. Natijada ushbu yondashuvlar subyektiv tavsif kasb etadi.

Shunga ko'ra, mazkur dissertatsion tadqiqot doirasida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar, shart-sharoitlar nuqtayi-nazaridan baholash g'oyasi ilgari suriladi va uning metodikasi taklif etiladi. Ya'ni, mamlakatimiz yoki uning alohida hududlaridagi moliyaviy savodxonlikning oshishiga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlar (omillar)ning o'zgarishi orqali baholash muhim o'rin tutadi.

Fikrimizcha, moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar nuqtai-nazaridan baholash uslubini quyidagi bosqichlar ketma-ketligida ifodalash maqsadga muvofiq (1-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar nuqtai-nazaridan baholashda eng avvalo muayyan mamlakat (hudud) iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nisbatan ahamiyatli omillarni aniqlash muhim hisoblanadi (1-bosqich). Chunki, iqtisodiyotning rivojlanish holati va undagi barqarorlikdan kelib chiqqan holda mamlakat yoki uning muayyan hududi uchun omillarning ahamiyatliligi farqlanishi mumkin.

Buni iqtisodiyotning rivojlanish barqarorligi holati bo'yicha farqlanuvchi mamlakat (hudud)lardagi moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarning ahamiyatliligi ifodalovchi shartli misol yordamida ko'rishimiz mumkin (2-jadval). Bunda har bir holatdagi iqtisodiyot uchun 3 tadan omil ahamiyatlilik darajasiga ko'ra ifodalangan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, agar rivojlanayotgan yoki qoloq mamlakatlar uchun birinchi navbatda moliyaviy infratuzilmaning mavjudligi va rivojlanganlik darajasi, moliyaviy

⁵¹ Muallif ishlanmasi

xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari muhim bo'lsa, bunday masalalar o'z yechimini topgan rivojlangan mamlakatlar uchun ko'proq davlatning iqtisodiy siyosati hamda aholining iqtisodiyotga ishonchi darajasi ahamiyatliroq hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, muayyan mamlakat (hudud) iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nisbatan ahamiyatli omillarni aniqlash mazkur baholash uslubining hal qiluvchi bosqichlaridan biridir.

Moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar nuqtai-nazaridan baholash uslubida tegishli omillarning joriy davr hamda taqqoslama davr (dinamika)dagi miqdoriy qiymatlarini aniqlash muhim (2-bosqich). Agar joriy davr qiymatlari moliyaviy savodxonlikning hozirgi vaqt uchun holatini ochib berishga xizmat qilsa, uning qator yillar uchun taqqoslama davr qiymatlari bu boradagi asosiy tendentsiyalarni tavsiflab beradi.

Har bir omil bo'yicha baholash uslubini ishlab chiqish mazkur baholash uslubining muhim amallaridan biri hisoblanadi (3-bosqich). Shunisi e'tiborliki, ayrim omillarni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni bevosita va oddiy tarzda ifodalash mumkin bo'lsa, boshqa birlarini baholash uchun murakkab hisob-kitoblar talab etilishi mumkin.

Barcha omillar bo'yicha majmuaviy (kompleks) baholash uslubini ishlab chiqish yuqoridagi har bir omil bo'yicha baholash uslubini umumlashtirish va o'zaro muvofiqlashtirish orqali amalga oshiriladi (4-bosqich). Natijada moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar nuqtai-nazaridan baholashning yaxlit va yagona natijasiga erishish imkoni vujudga keladi.

Har bir omil bo'yicha alohida va barcha omillar bo'yicha baholash natijalari va xulosalarini chiqarish moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar nuqtai-nazaridan baholash uslubining yakuniy bosqichlari bo'lib hisoblanadi (5-6-bosqichlar). Mazkur bosqichlar orqali mamlakat yoki uning muayyan hududidagi aholi moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha omil (shart-sharoit) lardagi o'zgarishlar, ulardan foydalanish darajasi va kengaytirish yo'nalishlari yuzasidan xulosalar chiqarish imkoniga ega bo'linadi.

Xulosa va takliflar.

Iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishda fuqarolarning iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ongli ravishda munosabatda bo'lishining muhim sharti hisoblangan moliyaviy savodxonlik katta ahamiyatga ega. Moliyaviy savodxonlik fuqarolarning hayotning turli jabhalari, jumladan, iqtisodiy faoliyat yuzasidan qabul qilayotgan qarorlarning to'g'ri va samarali bo'lishini ta'minlash bilan bir qatorda, mamlakatdagi ish-bilarmonlik muhitining rivojlanishiga, tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga qulay imkon yaratadi.

Moliyaviy savodxonlikni ta'minlashdan asosiy maqsad inson farovonligi va hayot sifatini oshirish hisoblanib, buning uchun u o'z ixtiyoridagi iqtisodiy resurslardan, ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea va hodisalar, vujudga kelishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlardan o'zi hamda jamiyat uchun manfaatli va samarali asosda foydalanish borasida yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, jamiyatda tarkib topgan qadriyatlar tizimi ham ushbu maqsadlar bilan o'zaro muvofiq kelishi zarur. Eng muhimi, har bir shaxs qayd etib o'tilgan vosita va dastaklardan foydalangan holda qisqa muddatli qarorlar qabul qilish hamda uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish jarayonini to'g'ri tashkil etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Aholi moliyaviy savodxonligining mazmuni va ahamiyatini ochib berishda uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va muayyan tizimga solish muhim o'rin tutib, uning turli (masalan, alohida shaxs, muayyan hudud aholisi, mamlakat aholisi) darajalarini tabaqalashtirish maqsadga muvofiq.

Aholi moliyaviy savodxonligiga ta'sir etuvchi omillarni baholash hamda ularni rivojlantirish muammolarini hal etish tizimiga mualliflik yondashuvining asosiy g'oyasi – yondashuvning pragmatik tavsifi, ya'ni omillarni baholash ta'sir ko'rsatish obyektlari va jihatlardan kelib chiqqan holda, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish bilan yakunlanishi hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlikning aholi daromadlariga ta'sirini mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar, mol-mulkdan olingan daromadlarning va ijtimoiy transfertlar bo'yicha tahlil qilish mumkin. Ma'lumotlar mamlakat hududlari bo'yicha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1% ga o'sishini aholi umumiy daromadlari hajmining o'sishiga ta'siri qiymati izchil ravishda pasayib borayotganligini; aholining moliyaviy savodxonlik darajasi bevosita ta'sir ko'rsatuvchi foizlar, mualliflik haqi va dividendlarning solishtirma salmog'i oshib borayotganligini; ijtimoiy transfertlar tarkibidagi pensiyalar va stipendiyalarning solishtirma salmog'i pasayib, nafaqalarning solishtirma salmog'i oshib borayotganligini ko'rsatadi.

Mamlakat miqyosida aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishni samarali tashkil etishda aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishning o'z mazmuniga ko'ra yaqin va yondosh tadbirlar bilan uyg'un holda olib borilishi; aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlarining shakl va mazmun jihatidan takrorlanish holatlarini keltirib chiqarishiga yo'l qo'ymaslik; bu borada belgilangan chora-tadbirlarning ahamiyatli qismini amalga oshirishda mavjud, yo'lga qo'yilgan tadbirlar va tashkiliy asoslardan foydalanishning ko'zda tutilishi kabi tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiq.

Jahon tajribasida aholi moliyaviy savodxonligi darajasini bir guruh respondentlar javobidan kelib chiqqan holda baholanishi manzarani to'liq aks ettirmasdan, ko'pincha noaniq tasavvurlarga sabab bo'ladi. Shunga ko'ra, "mahallabay" ishlash tizimi orqali mahalla fuqarolarining moliyaviy savodxonlik bo'yicha bilim va ko'nikmalari darajasini aniqlash uchun yo'lga qo'yilayotgan tadbirlar tarkibiga elektron savolnoma shaklini kiritish maqsadga muvofiq. Bunda mamlakat yoki uning hududlari bo'yicha umumiy tavsif kasb etuvchi chora-tadbirlar emas, balki har bir muayyan mahallaning amaldagi holatidan va xususiyatlaridan kelib chiqqan holdagi moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi ta'minlanadi.

Adabiyotlar/ Лумепамыра/ Reference:

Abduvoxidov A., Kamilova S. (2023) *Inson kapitalining raqamli rivojlanishini baholash* //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – T. 1. – №. 2. – C. 5-14.

Abduvoxidov A., Kamilova S. (2024) *Raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar bandligi va munosib mehnatning kontseptual asoslari* //Iqtisodiyot va ta'lim. – T. 25. – №. 2. – C. 73-82.

Hastings J.S., Madrian B.C., Skimmyhorn W.L. (2013) *Financial literacy, financial education, and economic outcomes* // *Annual Review of Economics*. Vol. 5. P. 347–373. – C.352.

Lisa Xu and Bilal Zia. (2012) *Financial Literacy around the World: An Overview of the Evidence with Practical Suggestions for the Way Forward*. Policy Research Working Paper 6107. June. URL: <http://www.worldbank.org>.

Usmonov A. (2021) *Iqtisodiy savodxonlik va iqtisodiy ta'limning tarbiyaviy ahamiyati* //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – №. 1.

Vaxabov A.V. (2013) *Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma* / A.V. Vaxabov, Sh.A. Toshmatov, N.X. Xaydarov, A.V. Vaxobov. – Toshkent: Baktria press, - 288 b.

Абдувоҳидов А.А. и др. (2022) *Иқтисодиётни барқарор ривожлантиришда тижорат банкларининг ўрнини кенгайтириш масалалари* //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – T. 2. – №. 11. – C. 252-263.

Белехова Г.В., Калачикова О.Н. (2016) *Финансовая грамотность молодежи (на материалах Вологодской области)* // Проблемы развития территории. Вып. 5 (85). - C.95.

Вахабов Абдурахим Васикович, Хажикаев Шухрат Хўжаёрович (2022) *Истеъмолчиларнинг молиявий саводxonлик даражасини ошириш муаммолари* // Экономика и финансы (Узбекистан). №4 (152).

Восканян Р.О. (2018) *Финансовая грамотность как условие формирования финансовой культуры*. Azimuth of Scientific Research: Economics and Administration. T. 7. № 1(22).

Калачикова О.Н., Белехова Г.В., Россошанский А.И. (2019) Индексная оценка финансовой грамотности населения (на примере регионов Северо-Западного федерального округа) // Вестник Пермского университета. Сер. «Экономика» = Perm University Herald. Economy. Том 14. № 4. С. 579–602. doi: 10.17072/1994-9960-2019-4-579-602.

Сушко, Е.Ю. (2014) Рациональность финансового поведения как фактор процветания финансового сектора [Текст] / Е. Ю. Сушко // Вестник НГУ. Серия: Социально-экономические науки. – Т. 14. – Вып. 4. – С. 99–110.

Тешабаева О. Н. и др. (2022) Аҳоли молиявий саводхонлиги ўсишининг тадбиркорлик фаолияти ва даромадлар даражасининг ошишига таъсири //Gospodarka i Innowacje. – Т. 29. – С. 348-355.